

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.D.Dehqonov	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
X.M.Xoshimxonov	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
M.A.Muxiddinova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
Y.A.Saidova	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	208
Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
M.M.Azizov	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida	218
D.V.Vohidova	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
X.X.Raxmatova	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati	227
X.X.Raxmatova	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
O.L.Berdiyev	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari	237
D.D.G'ulomov	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida)	243
D.I.Gulamova	
Interpretation of euphemisms used in social life	246
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar	250
B.O.Komilova, M.R.Toxirova	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri	254
B.O.Komilova	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	260
A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
Sh.K.Abduraxmonov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
O.Ortiqov	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
M.C.Курбоналиева	
Муаррифии чанд тазкираи умумии шоирони асри xviii	286
X.A.Lutfullayeva	
Problems of developing self-educational skills of students	293
P.Абдуллаев	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ	298

XOTIRA

Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi	304
--	------------

**ABDULLA QODIRIY IJODIDA RETROSPEKTIV SYUJET
("MEHROBDAN CHAYON" ROMANI MISOLIDA)****РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ СЮЖЕТ В РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАДИРИ
(НА ПРИМЕРЕ СКОРПИОНА С АЛТАРЯ)****RETROSPECTIVE PLOT IN THE WORK OF ABDULLA KADIRI
(ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL "SCORPION FROM ALTAR")****G'ulomov Doniyorbek Dilshodjon o'g'li¹**¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodida syujet qurilishining retrospektiv tipi, o'ziga xosligi, mazmuni va shakliga ko'ra ko'rinishlari, retrospektiv qismning kim tomonidan qo'llanilishiga ko'ra shakllari, retrospektiv elementlar va ularning badiiy asardagi vazifalari "Mehrobdan chayon" romani misolida tadqiq etilgan.

Аннотация

В этой статье рассматривается ретроспективный тип, уникальность, содержание и структура сюжета в произведениях Абдуллы Кадири, формы ретроспективной части в зависимости от того, кто их использует, элементы ретроспекции и их функции в художественном произведении на примере романа "Скорпион из Алтаря".

Abstract

In this article, the retrospective type, uniqueness, content, and structure of the plot in the works of Abdulla Qodiriy, the forms of the retrospective part depending on who is using them, the elements of retrospection, and their functions in the literary work are explored, using the example of the novel "Scorpion from the Altar".

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, roman, retrospeksiya, syujet, retrospektiv elementlar, voqea, voqealar rivoji, badiiy asar, kitobxon, funksiya.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, роман, ретроспектива, сюжет, ретроспективные элементы, событие, развитие событий, художественное произведение, читатель, функция.

Key words: Abdulla Qadiri, novel, retrospective, plot, retrospective elements, event, events narration, artwork, reader, function.

KIRISH

O'zbek romanchiligi asoschisi, Turkiston jadidchilik harakati yorqin namoyondasi Abdulla Qodiriyning ijodi, yaratgan asarlari hanuzgacha yuzlab ilmiy asarlar, monografiyalar, va ilmiy maqolalarga asos bo'lib kelmoqda. Adibning ikkinchi yirik asari "Mehrobdan chayon" 1928-yil fevral oyida yozilib, 1929-yilda Samarqandda bosib chiqarildi. Roman mavzui "xon zamonlari" davridagi ijtimoiy hayot, amaldorlar zulmi, o'zboshimchaliklarini yoritishga qaratilgan bo'lsada, roman yozilgan davr muhiti ufurib turadi. Asarning "Mehrobdan chayon" nomlanishi unda bosh qahramon etib ziyolilar olinishidan maqsad – muqaddas va aziz joydan chiqqan qallob, munofiq, hasadgo'y, e'tiqodsiz, muallif tili bilan aytganda "chayon"lar haqida so'zlash, ularning kirdikorlarini fosh etish edi. Muallif Anvar va Ra'no sevgi sarguzashti, shaxsiy taqdiri misolida butun davr ijtimoiy muhitini yoritib bera olgan deysish mumkin.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

Roman syujeti qurilishi ham Qodiriyga xos mahorat bilan tuzilgan. Jumladan, roman syujeti qurilishining **retrospektiv usuli** [1,510-513b.], **retrospektiv elementlardan** mohirona foydalanilgan. Tarixiy romanlarda davr, tasvirlanayotgan voqealar ko'lami kengligi bois retrospektiv syujetdan foydalanish juda qulay vositadir. Yozuvchining voqealarni to'liq bayon etishga urinishi, uning ko'lami kengayib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida asarning badiiy qiymatiga putur yetkazadi. Badiiy asar shunchaki keng ko'lamdagi voqealar bayoni bo'lib qolishiga va kitobxonni ko'pincha zerikib qolishiga olib kelishi mumkin. Endilikda, yozuvchi bevosita asosiy voqealar bayoniga o'tadi. Asarning ma'lum qismiga yetganida, biror holat, harakterni izohlash ehtiyoji tug'ilganda uning o'tmishiga qisqa murojaat qilishi, avvaliga tushunarsiz xatti-harakat va voqealarga aniqlik kiritishi mumkin. Bu esa yozuvchi zimmasidagi vazifani yengillashtiradi.

“Mehrobdan chayon” romanida adib umumiy hisobda **40 marta** turli xil ko‘rinishdagi retrospeksiyaning foydalanilganligini guvohi bo‘lamiz. Abdulla Qodiriy ijodidagi retrospeksiyaning o‘ziga xos jihatlardan biri, muallafning asosan **“biografik retrospeksiya”**dan foydalanadi. Masalan,

“Solih maxdum 1230-1290 hijriy yillarda “Ho‘qandi firdavsmonand”da yashag‘an bir muallim va imom, o‘z zamonasining istilosi bilan aytkanda “maktabdor domla”dir. Solih maxdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub bo‘lib, bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qoziliq mansablarida xizmat qilg‘an, otasi ersa Qo‘qonning Madali (Muhammadali) xon madrasasida necha yillar mudarris bo‘lgandir. Qisqasi maxdumning ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida “sharaflik va muhtaram” mavqi’ni ushlab kelganlar” [2, 8-11 b.].

Yozuvchi dastlab Solih maxdum o‘tmishiga qaytib, uning oilasi haqida ma‘lumot berdi. Demak, biografik retrospeksiya – u yoki bu qahramonning harakterdagi tushunarsiz jihatlarni ochib berish, izohlash uchun qo‘llaniladi. Keyinchalik voqealar uning oilasi o‘tmishiga aniqlik kiritishni taqazo etib, muallif uzoqroq o‘tmishga qaytadi. Keyingi sahifada voqealarning mantiqiy davomi sifatida Solih maxdum bolaligi tasviri berildi:

“Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshliq talaba edi. Otasi marhum bo‘lg‘andan so‘ng o‘zidan bir necha yosh kattaroq og‘asi Marg‘ilong‘a imom bo‘lib oilasi bilan ko‘chib ketdi. Solih maxdum onasi va o‘n olti yoshliq Na‘ima ismlik singlisi bilan Qo‘qonda qo‘ldi. Birar joydan kelim bo‘lmag‘anliqdan bu oila ko‘b tanglikka tushib oxirda Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to‘ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo‘ldi” [2, 12-13 b.].

Kitobxon asarda tasvirlanadigan Solih maxdum obrazining asosiy voqealargacha bo‘lgan o‘tmishi, personaj evolutsiyasi haqida ma‘lumotga ega bo‘ldi. Endigi voqealar uning xarakterining ayrim xislatlarini izohlashni taqazo etdi:

“Yuqoridan o‘qug‘uchig‘a bir daraja onglashilg‘an bo‘lsa kerakki, yaqin yigirma yillardan beri maxdumning maxdumning kelimi shahar yoki qishloq so‘rab turg‘an bir bekcha bo‘lasa-da, undan quyiroq, har holda shahar madrasasida darsto‘lik qilib, vaqfni o‘z qabzig‘a olg‘an bir mudarrisning tushimidan albatta ko‘b. Kelimning shu yo‘sun yaxshi bo‘lishig‘a qaramasdan uning tabi‘atida harchand tirishilsa ham maxtab bo‘lmaydirg‘an xususiyatlar bor: xasislikka o‘xshag‘an holat, tama‘girlik kabi odat, ichqoraliq singari harakat va amsoli...” [2, 14-19 b.].

Xuddi shunday shaklda muallif Nigorxonim, Ra‘no va keyingi o‘rinlarda Anvar va uning oilasi haqida retrospeksiya yordamida ma‘lumot berib, izohlab kitobxonni asosiy voqealarga tayyorlab oladi. Demak, asar boshidagi retrospektiv qism bir vaqtning o‘zida qahramonlarni anglash va keyingi voqealarda ularni xatti-xarakatini tushunish imkoniyatini beradi. Bunday holatda retrospektiv qism syujet voqealarini rivojlantiruvchi vazifasini ham bajaradi. Ayrim tadqiqotchilarning naznida badiiy asarda retrospeksiyaning qo‘llanilisha syujet rivojini ortga tashlaydi degan yanglish fikr mavjud. Retrospeksiyaning foydalanilgan voqealar rivoji bir qarashda sekinlashgandek tuyulishi mumkin. Aslida esa retrospeksiyaning unumli foydalanilganda voqealar rivoji tashqi harakat dinamikasidan ichki harakat dinamikasiga ko‘chadi. Ammo biz har doim ham shunday bo‘ladi degan fikrdan yiroqmiz. Ba‘zi holatlarda mualliflar voqealar rivojiga shunday shiddat beradiki, natijada kitobxon bu voqealar tezligiga berilib, moslashib keyingi shiddatni sezmay qoladi. Shu o‘rinlarda muallif retrospeksiya yordamida voqealar rivojini bir muddatga sekinlashtiradi, o‘quvchiga harakat dinamikasini anglab olishga imkoniyat berganday bo‘ladi. Bunday holatlarda retrospeksiyaning syujet rivojini tormozlantiruvchi funksiyasi ko‘rinadi. Demak retrospeksiyaning syujet voqealarini **rivojlantiruvchi** va **sekinlashtiruvchi** funksiyalari mavjudligi haqidagi fikr o‘z isbotini topadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizga ma‘lumki, badiiy asar tili bir muncha murakkablikka ega. Epik asarlarda asosan voqealar bayonini muallif o‘z qo‘lida ushlab turadi. Ba‘zi holatlarda muallif voqealar bayonini personajga topshiradi. Shunga ko‘ra badiiy asarda **hikoyachi-personaj retrospeksiyasi**[3, 69-70 b.]ga ham duch kelish mumkin:

“– Sizing shu gapingiz bilan bir kishi yodimg‘a tushti: o‘zi mulla Abdurahmonning qavmlaridan bo‘lg‘an oq ko‘ngilli sodda bir kishi bor. Oti... ha, oti Safarboy, kasbi bo‘zchiliq. O‘tkan kun o‘rdadan qaytib borsam, shu kishi uyda meni kutib o‘lturibdir. Xo‘sh, keling, Safar aka? — Kuygan-pishkan, menga “arz” qildi: mulla Abdurahmonning bir do‘stidan eshitkan emish, go‘yo

mulla Abdurahmon biravga mirzo Anvarning tegiga yaqinda suv keladi” degan emish... “Bu nima degan gap, mirzo, nega sizning tegingizga suv keladi?” deb so’raydi. Men kuldim... “Hozircha tegim quruq, basharti tegimga suv kelsa, bo’zchiligni o’rgatasizmi?” deb so’radim. Savolimga javob bermaydi, faqat sizning so’zingizni aytib: “Imomimiz fisqi-fasod, bunday kishini haydaganingiz ma’qul” deydi” [2, 182-283 b.].

Demak, badiiy asar tarkibidagi retrospektiv qism kim tomonidan bayon etilishiga ko’ra turli shakllarda qo’llanilishi mumkinligi haqidagi qarashlar o’z isbotini topadi.

Asarda muallif voqealar rivojini to’xtatmay, sharoit taqazosidan yoki kitobxonni hayojonda ushlab turish (intrigani saqlash) maqsadida ayrim voqealarni izohlamaydi. Natijada, ayrim holatlar kitobxonda noaniqlik keltirib chiqaradi:

“... Biz o’tkan 51-nchi faslda Anvar bilan Ra’noni Sultonlining darbozasida qo’yib, 52-nchi-faslga sakragan edik. Shunda chala qolg’an bir necha ahvolni hozir aytib kechmasak, muhtaram o’qug’uchig’a Sultonali masalasi bir oz onglashilmay qoladirg’an ko’rindi. Shundog’ki, Anvarning majburiyat ostida Ra’no bilan kelishi Sultonali juda ham shoshirib qo’ydi. Ikki orada kuchlik muhabbat borlig’ig’a yana bir karra amalda qanoat hosil qilg’anidek, ularning istiqbolini qorongiliqda ko’rdi” [2, 260-262 b.].

Shu o’rinda retrospeksiyaning davriy nuqtai nazaridan ham turli shakllari mavjud ekanligini guvohi bo’lamiz. Berilgan misollardan kelib chiqqan holda retrospeksiyaning – **yaqin o’tmishga, o’tmishga va uzoq o’tmishga murojaat** kabi shakllari mavjud.

Nutq shakliga ya’ni kim tomonidan bayon etilganiga ko’ra retrospeksiyaning shakllarini ko’rdik. Xuddi shu bayon etilgan voqeaning qanday shaklda kelishiga ko’ra ham shakllarga ajratish mumkin. Badiiy asarda biz bevosita **retrospektiv-dialog** shaklida kelganini ko’ramiz:

“ – Manavi osonliqni qarang, taqsir. Duo qilib qalam uchisiga bo’zni berdim, olmaydi. “Yopiray, ozsindiyov, qurg’ur” deb qo’rqdim. “Arza o’runlasa yana xizmat qilarmiz, mirzaboshi”. Yana yo’q, “toza falakat bosti” deb tursam, “arzaga haq olmayman, bo’zingni olib ketavur” – degani ekan. Baraka topqurni qarang, taqsir. A, shundaqa odam ham bo’ladimi, Samad og’a. “Oltin olmasang, duo ol” deb qo’limni ochtim. Ha, endi buni qo’yavuring. Ertasi kechqurun gula to’g’rilab o’ltursam eshikni birav taqillatadi. “Ha, kelavuring”. Do’konxonaga bo’z qo’ltuqlag’an bir kishi kirdi” [2, 69-70 b.].

XULOSA

Romanda retrospeksiya, uning turli shakllari va retrospektiv elementlardan adib mohirona foydalangan. Abdulla Qodiriyning ushbu romani misolida retrospeksiyaning badiiy asarda **retrospektiv-dialog, biografik-retrospeksiya, hikoyachi-muallif, hikoyachi-personaj retrospeksiyasi, yaqin o’tmish, o’tmish, o’zoq o’tmishga** murojaat shakllidagi turli xil ko’rinishda qo’llanilib, asar voqealari rivojiga turtki beruvchi va voqealar rivojini tormozlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, asarga badiiy jihatdan putur yetkizmagan holda, kitobxonni asosiy voqealarga tayyorlash, asar qahramonlari xarakteri qirralarini ochish, ularning xatti-harakatlari sabablarini izohlash kabi turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features // EPRA International Journal of Multidisciplinary research (IJMR) – 2020. Issue:11. november, No6, page 510-513.
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon, – Toshkent: Sharq, 2004. 287 b.
3. Rahimov Z. “Ko’hna dunyo” romani poetikasi. Filol. fan. nom. diss... –Farg’ona, 2005.
4. Rahimov Z., Gulomov D.D. Retrospective structure in fiction. “Actual problems of classical and modern uzbek literature” collection of the international online conference, 2020, page 153-160.